



Xizmatlar sohasi

2017 yil yanvar-dekabr

Raqamlar:

2017 yil yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 8237,6 mlrd. so`mni tashkil etdi

Moliyaviy xizmatlar o'sish sur'ati 127,4 % ni tashkil qildi.

“2016 – 2020 yillarda xizmatlar sohasining rivojlantirish dasturi” ni amalga oshirilishi natijasida, 2017 yil yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 8237,6 mlrd. so`mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,9 % ga oshdi.

Moliyaviy faoliyatni takomillashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, texnik hamda texnologik yangilashlar natijasida hisobot davrida eng yuqori o'sish sur'atlariga moliyaviy xizmatlari bo'yicha 127,4 % ga; aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha 120,5 % ga; ta'lim xizmatlari bo'yicha 117,5 % ga; sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlari bo'yicha 106,7 % ga erishildi.



2018

**“FAOL TADBIRKORLIK,
INNOVATSION G'OVALAR
VA TEKNOLOGIYALARINI
QO'LLAB-QUVVATLASH
YILI”**


Xizmatlar sohasi aholining barcha qatlamlarini qamrab oladi va jamiyatda sodir bo'layotgan deyarli barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi, bu esa mazkur masalaning qanchalik muhim va ahamiyatli ekanligini ko'rsatib beradi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, mamlakat aholisining bandligi, daromadlari va turmush sifatini oshirishning muhim yo'nalishlari va omillaridan biri sifatida xizmatlar sohasi va servisni jadal rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.




2017 yil yanvar-dekabrda xizmatlar tarkibi, % da

- aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
- moliyaviy xizmatlar
- transport xizmatlari
- yashash va ovqatlanish xizmatlari
- savdo xizmatlari
- ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar
- ta'lif sohasidagi xizmatlar
- sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
- ijara va prokat xizmatlari
- kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari
- shaxsiy xizmatlar
- me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar
- boshqa xizmatlar



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (jami xizmatlarning 30,4 %), savdo xizmatlari (30,2 %), moliyaviy xizmatlari (8,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,5 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2016-2017 yillarda yanvar-dekabr oylarida alohida xizmat turlari hajmi, mlrd. so`mda






Xizmatlar hajmining oshishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanadi, jumladan: bozorda yangi turdagи xizmatlarning paydo bo'lishi, masalan, kredit kartalari orqali to'lovlar, Internet savdo, yangi savdo markazlari, ovqatlanish korxonalari, mehmonxonalarning tashkil etilishi, ta'lif xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanloving kengayishi shular jumlasidandir.

Hisobot davrida eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar bo'yicha - 127,4 %; aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha – 120,5 %; ta'lif xizmatlari bo'yicha 117,5 %; sog'liqni saqlash xizmatlari bo'yicha – 106,7 % ga erishildi.

2017 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da




Tuman (shahar)lar bu viloyat iqtisodiyotining alohida hududiy qismi hisoblanadi. Har bir hudud o'zining ixtisoslashuvi, iqtisodiyotni kompleks rivojlantirish va uni boshqarish imkoniyati bilan boshqasidan farq qiladi.

Hududlar kesimida xizmatlar bo'yicha yuqori o'sish sur'atiga Samarqand shahri (107,1%); Urgut (104,6 %) va Tayloq (104,4 %) tumanlarida erishildi. Jami xizmatlar hajmida Samarqand shahrining ulushi 62,8 foizni tashkil etdi.




**2017 yil yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha aholi jon boshiga
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, ming so`mda**



Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Samarqand (9814,3 ming so`m), Kattaqo'rg'on shaharlarida (2112,6 ming so`m) hamda Nurobod (1298,6 ming so`m), Samarqand (1297,1 ming so`m), Oqdaryo (1297,0 ming so`m) va Jomboy (1275,9 ming so`m) tumanlarida qayd etildi.

2017 yil yanvar-dekabrdada transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi



Tashilgan yuk
- 44,2 mln. tn



Yuk aylanmasi -
1003,6 mln. tn-km

2017 yil yanvar-dekabrida barcha transport turlari tomonidan 44,2 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,4 % ga ko'p.

Yuk aylanmasi barcha transport turlari tomonidan 1003,6 mln.tn-km. ni tashkil qildi va 103,2 % ga ko'paydi.

2017 yil yanvar-dekabrdada transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi



Transportda tashilgan
yo'lovchilar
- 436,5 mln. kishi



Yo'lovchi aylanmasi -
13721,7 mln.yo'lovchi-km

Xususiy yo'lovchi tashuvchilar avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasi 2016 yil yanvar-dekabrga nisbatan 102,5 % ga ko'paydi va 12924,0 mln. yo'lovchi-km. ni tashkil qildi.

Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida xususiy yo'lovchi tashuvchilarning ulushi 94,2 % ni (2016 yil yanvar-dekabrida 94,4 %) tashkil etdi.